

JP Morgan kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 28 October 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jp-morgan-kompaniyasi-vakillari-bilan-uchrashuv-bo-lib-o-tdi>



"O'zkimyosanoat" Ajda JP Morgan kompaniyasi vitse-prezidenti Arseniy Loboyko bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda 2024-yil uchun kutilgan moliyaviy natijalar, EBITDA va Debt/EBITDA ko'rsatkichlari, yevrobondlar chiqarish rejalari yuzasidan fikr almashildi.

Shu bilan birga, potensial investorlar bilan uchrashuvlar tashkil etishga kelishib olindi. Bu uchrashuvlarda "O'zkimyosanoat" AJning yevrobondlar chiqarish istiqbollari va kompaniyaning joriy moliyaviy holati haqida batafsil ma'lumot taqdim etilishi rejalashtirilmoqda.



Bu kelgusida kompaniyaning xalqaro kapital bozoridagi rejalari va istiqbollari haqida investorlarga kengroq tushuncha berish imkonini yaratadi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati